

**ILMIY VA BADIY ADABIYOTLARDAN KONSPEKT TUZISH HAQIDA  
AYRIM MULOHAZALAR.**

*O‘z-FinPI Boshlang‘ich ta’lim va gumanitar fanlar fakulteti "Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi" kafedrasi dotsenti A.Namazov va 211-guruh talabasi Musirmanova Shoxsanam Xamza qizi*  
*Tel: +998 91 708 22 31*

**Annotatsiya.** Maqolada ilmiy va badiiy asarlardan konsept tuzish jarayonida e’tiborga olinishi kerak bo’lgan jihatlarga urg’u berilgan. Xususan, konseptlashtirish jarayonida ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o’rganishning ahamiyati misollar yordamida tushuntirilgan.

**Kalit so’zlar.** Ilmiy asar, badiiy asar, konsept, maqola, konsept tuzish, sifat, ravish, izohli lug’at.

Ko’pchilik talabalar konsept tuzish deganda biror ilmiy va badiiy asar mazmunini ko’chirish, yozib olish deb tushunadi. Biroq bu boshdan-oyoq mazmunni to’liq ko’chirib yozish degani emas. “O’zbek tilining izohli lug’ati” da **konsept** so’ziga quyidagicha izoh berilgan: “Kitob, maqola, ma’ruza va shu kabilarning qisqa yozib olingan mazmuni, bayoni” (1. 401-bet.). Demak, talaba ilmiy va badiiy asar matni bilan tanishib chiqishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yar ekan, uni o’qiyotganda o’ziga zarur deb hisoblagan, matnda asosiy e’tibor qaratilishi muhim bo’lgan joylarni avvaldan belgilab oladi. Konseptlashtirish jarayonida ko’proq ana shu nuqtalarga diqqatni qaratadi. Talaba konsept tuzayotganda mantiqiy izchillikka, fikrlarning bog’lanishiga rioya qilishi zarur. Ayrim hollarda esidan chiqqan fikrni qaytadan eslash va uni konseptning biror joyida qayd qilib qo’yish mantiqiy bog’lanishning buzilishiga olib keladi. Shu ma’noda konseptlashtirish ham qat’iy reja asosida olib borilishi zarur. Qolaversa, biror ilmiy va badiiy matnni konseptlashtirishdan asosiy ko’zlangan maqsad – olingan ma’lumotlarni imkon qadar uzoq vaqt xotirada saqlash, o’rni kelganda bulardan samarali foydalanishdir. Xalq orasida “bir marta yozgan uch marta o’qiganga teng” degan fikr bor. Darhaqiqat, shunday talabalar borki, ular konsept yozish davomida ma’lumot va mazmunni o’zlashtirib, “hazm” qilib ketaveradi. Bular o’zlari yozgan ma’lumotlarni qayta o’qimaydi, boshqacha aytganda, ularning yozishi – xotirasida “muhr”lash uchun qilingan yumushdir. Shu yumushsiz ular xotirasida ma’lumotlarni uzoq saqlay olmaydi. Yana shunday talabalar bo’ladiki, ular konseptlashtirishni o’zlari uchun ortiqcha ish hisoblashadi, ular o’zlariga zarur bo’lgan ma’lumotlarni o’qish orqali esda qoldirishadi. Bunday talabalar

konspektlashtirishni bilimni uzoq saqlash vositasi deb emas, imtihon va sinovlardan “yiqil”maslik uchun qilingan ish deb qarashadi.

Talabalarning yana bir toifasi konspektlashtirishni ham, o’qishni ham istashmaydi. Ular o’zgalarning bilimi, saviyasidan foydalanib, xotirasida ma’lumotlarni saqlashni, shularga tayanib maqsadiga erishishni, baholanishni istaydi. Gap shundaki, ular kuzatuvchan bolib, kim qanday bilim va salohiyatga ega, xabardor bo’lishadi. Yaxshi bilimga ega bo’lgan talabalarning o’zaro babs-munozaraga kirishuvini kuzatib turish ular uchun o’ziga kerakli “bilim” ni o’zlashtirish jarayonidir. Bu toifadagi talabalarning tili bilan aytganda “diskussiya”, bunda ular faol “tinglovchi” rolini ijro etishadi.

Bizningcha, ilmiy yoki badiiy matn yuzasidan izchillik bilan, maqsadli amalga oshirilgan konspektlashtirishning yana bir muhim jihat shundaki, bunday konspekt uzoq yillardan keyin ham bir o’qilganda ma’lumotlarni qaytadan “jonlantiradi”. Shu sababli konspektlashtirishning mukammalligi juda muhimdir. Bunday konspekt ba’zan boshqa foydalanuvchilarga ham asqotadi.

Talaba bir muammo, bir mavzu bayoniga bag’ishlangan ikki ilmiy asar yuzasidan konspekt olayotganda ulardagi ma’lumotlar bilan tanishish barobarida ularni qiyosiy o’rganish imkoniga ega bo’ladi, qaysi manbagaga ishonish va tayanish, fikrlarga munosabat bildirish orqali o’zida mustaqil fikr va xulosani shakllantiradi. Ilmiy manba odatda aniq ma’lumot, raqamlarga tayanadi. Shu sababli konspekt olinayotganda ham umumiyligi ma’lumotlar bilan kifoyalanmaslik kerak, balki aniq misollar vositasida fikrlar asoslanishi zarur. Tasavvur hosil qilish uchun “Ona tili” fanida o’rgatiladigan “Sifat” va “Ravish” mavzulari misolida mulohazalarimizni asoslamoqchimiz. Bu ikki mavzuni konspektlashtirishda, nazarimizda, e’tiborga molik jihat shundaki, talaba avvalo bu ikki mavzuning ilmiy ta’rifiga ahamiyat qaratishi kerak. Ilmiy ta’rifdagi “predmetning belgisi” va “harakatning belgisi” tushunchalari aslida bu ikki turkumning farqli jihatni hisoblanadi. Ushbu ta’rifning aniq misollar bilan dalillanishi konspektning mukammalligini ta’minalash bilan birga shunga o’xshash misollarga talabalar duch kelganda, ularda ikkilanmasdan xulosa chiqara olish ko’nikmasi hosil bo’ladi. Ko’pchilik hollarda talabalardan “Men sira sifat bilan ravishni farqlay olmaymand” mazmunidagi savollarni eshitamiz. Talaba bu savolga javob topishi uchun ularning nutqimizdagi uslibiyatiyatiga, qo’llanish o’rniga ham e’tibor qaratishi zarur degan fikrdamiz. Bilishimizcha, an’anaviy ta’lim jarayoniga xos qoidadan so’ng misol keltirish orqali tushuntirish usulida emas, balki avvalo misollar havola qilish va shularga tayanib qoidani shakllantirish ko’proq samarali bo’ladi. Bu jarayonda talabalarning o’zlarini ham “ishlatish”: misollar keltirishi, tahlil qilishi, ya’ni barcha amaliy ishlari, birinchi navbatda o’z mehnati orqali o’ziga tushunarli bo’lgan bilimni, ta’rifni shakllantirishga qaratiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil , 2-jild, 401-bet.
2. Shodiyev F. Ona tili. – Samarqand. SamDU nashri, 2019. 360 bet.

